

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 99 (1698), 2026-yil 16-may, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## TURKIY DUNYONING YANGI RAQAMLI TARAQQIYOT DAVRI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 15-may kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Tashrif doirasida dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan birgalikda Turkiston shahrida O‘zbekiston tomonidan bunyod etilgan masjid bilan tanishdilar.

Majmuaning umumiy maydoni 7 gektardan ziyodni tashkil etadi, unda 5 mingdan ortiq kishi namoz o‘qishi mumkin. Muhtasham ansambl to‘rtta 70 metrlik minora hamda asosiy zal va an‘anaviy ayvonlarni o‘z ichiga olgan uch qavatli bosh binodan iborat.

Islom va Sharq me‘morchiligining eng yaxshi an‘analari muvofiq barpo etilgan jome masjidida milliy naqshlar, sharqona gumbazlar, baland minoralar hamda zamonaviy qurilish texnologiyalari uyg‘un qiyofa kasb etgan. Masjidning ichki bezagida islom xattotlik va naqshlik san‘ati namunalari keng foydalanilgan.

Atrofda 4,2 gektar maydonni obodonlashtirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu yerda yashil maydonlar, yo‘laklar, dam olish joylari, yoritish tizimlari, manzarali qurilmalar va favvoralar barpo etilmoqda.

O‘zbekiston tomonidan qardosh Qozog‘iston xalqi hamda Turkiston aholisiga tuhfa sifatida qurib bitkazilgan ushbu muhtasham majmau ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va madaniy yaqinlik, yaxshi qo‘shnichilik hamda ittifoqchilik munosabatlarining yorqin ifodasi bo‘lgani ta‘kidlandi.

Qur‘on oyatlari tilovat etilib, qardosh xalqlarimizga tinchlik va farovonlik tilab, duo o‘qildi.

Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg‘iz

Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Samimiy muloqotda O‘zbekiston — Qirg‘iziston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro savdo hajmi jadal o‘sib, sanoat, qishloq, suv xo‘jaligi va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari ilgari surilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Madaniy-gumanitar almashinuvlar kengayib bormoqda.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni

amalga oshirish masalalari, energetika va transport sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalarni, shu jumladan, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishini jadallashtirish choralarini muhokama qilindi.

Shuningdek, yetakchilar mintaqaviy kun tartibining muhim jihatlari yuzasidan fikr almashdilar va bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ko‘rib chiqdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan ham uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbarining joriy yil yanvar oyida Anqaraga rasmiy tashrifi O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yangi, yanada yuqori bosqichga olib chiqqani ta‘kidlandi.

Oliy darajada erishilgan muhim kelishuvlar ijrosi yuzasidan faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani, vazirlik va idoralar o‘rtasida yangicha tizim yaratilgani natijasida ko‘p qirrali hamkorlik aloqalari samarali rivojlanayotgani qayd etildi.

Davomi 2-beta

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI NORASMIY SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Avvalambor, qadimiy va navqiron Turkiston shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy muloqotini o‘tkazish tashabbusi, barchamizga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom va an‘anaviy mehmondo‘stlik uchun Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga chin dildan tashakkur izhor etaman.

Shuningdek, Tuzilmamizning xalqaro nufuzini mustahkamlash yo‘lida ulkan sa‘y-harakatlarni amalga oshirayotgan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevga samarali raisligi uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Bugungi anjuman musulmon ummatining ulug‘ ayoyimi — muborak Qurbon hayiti arafasiga to‘g‘ri kelayotganida chuqur ramziy ma‘no mujassam. Zero, bizning qadimiy tariximiz, muqaddas dinimiz, madaniy va ma‘rifiy ildizlarimiz, azaliy qadriyat va an‘analimiz mushtarak.

Go‘zal Turkiston shahri Buyuk ipak yo‘lining muhim savdo va madaniyat markazi hisoblangan. Mazkur zaminda ulug‘ ajdodimiz Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari mangu orom topgan. Bu tabarruk kent biz uchun, avvalo, xalqlarimiz birligi va hamjihatligining yorqin timsolidir.

Hurmatli Prezident Qosim-Jomart Kemelevichning xalqimizning qardosh Qozog‘iston eliga do‘stlik tuhfasini berib berilgan muhtasham jome masjidida haqida hozir bildirgan samimiy fikrlari uchun rahmat aytmoqchiman.

Qozog‘iston rahbariyatining Turkistonning me‘moriy qiyofasini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan ulkan bunyodkorlik ishlari ushbu ko‘rkam maskan qardosh xalqlarimizning umumiy ma‘naviy markazlaridan biriga aylantirishi shubhasiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Bugungi uchrashuvimiz jahonda turli ziddiyatlar tobora avj olayotgan davrga to‘g‘ri kelmoqda. Xalqaro munosabatlarda ishonch taqchilligi yanada kuchayib, global institutlarning o‘rni va ta‘siri borgan sari zaiflashmoqda. Bu muammolar bizdan o‘zaro muloqotlarni faollashtirib, muhim masalalar bo‘yicha uyg‘un pozitsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Turkiy dunyoning integratsiyasi bu xalqlarimiz taqdiriga bevosita daxldor bo‘lgan uzoq muddatli strategik masaladir.

So‘nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti barqaror rivojlanish sur‘atlarini namoyish etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Masalan, 2025-yilda davlatlarimizning umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va uning dinamikasi global o‘shishdan ikki barobar yuqori (6,8 foiz) bo‘ldi.

O‘tgan yilning o‘zida O‘zbekistonning Tashkilot mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foizga o‘tdi (11 milliard dollar). Joriy yildan Turkiy investitsiya jamg‘armasi operatsion faoliyatini boshladi, Markaziy banklar kengashi, Yashil moliyalashtirish bo‘yicha Turkiy kengashi ishi yo‘lga qo‘yildi.

Bulaming barchasi Tashkilotimizning institutsional jihatdan tobora mustahkamlanib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Qadrlidostlar!

Oldimizda ko‘p qirrali munosabatlarimizga tizimli tus berish bo‘yicha dolzarb vazifalar turibdi.

Bugungi sammitning sun‘iy intellekt va raqamli rivojlanish mavzusiga bag‘ishlangani bejiz emas. O‘lkalarimizda yashab, ijod qilgan ulug‘ bobolarimiz — Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek

algoritm, matematika, astronomiya va fizika fanlari ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shib, shu tariqa hozirgi sun‘iy intellekt rivoji uchun asos yaratganlar.

Biz ajdodlarimizning ana shunday bebaho merosiga tayanib, bugun Turkiy dunyoning yangi raqamli taraqqiyot davrini barpo etaymiz. Bu yo‘nalishda hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqchiman.

**Birinchi**dan, Tashkilotimiz doirasida sun‘iy intellekt sohasida strategik hamkorlik tarmog‘ini shakllantirish — bugungi davr talabi.

Mazkur samarali mexanizm orqali biz iqtisodiy o‘shishning yangi nuqtalarini belgilash, bulutli va kvant hisoblash texnologiyalarini rivojlantirish, ochiq va zamonaviy yagona raqamli makonni yaratish imkoniga ega bo‘lamiz.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda xorijiy investorlar bilan data markazlar yaratishga 6 milliard dollar sarmoya jalb etmoqda. Biz mintaqadagi data markazlarini yuqori tezlikdagi aloqa kanallari bilan bog‘laydigan “Raqamli turkiy koridor konsepsiyasi”ni ishlab chiqishni taklif etamiz. Mazkur sohadagi amaliy aloqalarimizni yanada kuchaytirish maqsadida Toshkent shahrida a‘zo davlatlar ishtirokida Texnologiyalar forumini o‘tkazishni reja qilganmiz.

**Ikkinchi**dan, ilm-fan, ta‘lim va yoshlar masalalarida hamkorlikni chuqurlashtirish — umumiy maqsadimiz.

Ilmiy-ma‘naviy merosni puxta o‘rganish va targ‘ib etish uchun Toshkent shahrida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi mintaqaviy yirik ilmiy-ma‘rifiy maskanga aylanib bormoqda. Shu kunlarda majmuada TURKSOYning ofisi ochilganini olqishlaymiz. Ushbu markaz TURKSOY va Turkiy akademiya bilan tarixiy-madaniy

manbalarimizni yagona “katta ma‘lumotlar” platformasiga jamlasa, xalqlarimiz uchun foydali ish bo‘lar edi.

Shu bilan birga, Yassaviy tariqatining bag‘rikenglik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini hamkorlikda chuqur o‘rganish hamda keng targ‘ib etishni taklif qilamiz.

Xabaringiz bor, shu yil Xiva shahriga “Turkiy dunyo yoshlari poytaxti” maqomi berildi. Bu qaror, ayniqsa, o‘g‘il-qizlarimizga kuchli motivatsiya bag‘ishladi. Tadbirlar doirasida Yosh liderlar forumi va Xalqaro yoshlar festivalini o‘tkazishga tayyormiz.

Aytish joizki, biz shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon talablariga mos va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida “5 million sun‘iy intellekt yetakchilari” dasturini amalga oshiraymiz. Hozirga qadar mazkur loyiha orqali 1 milliondan ortiq o‘g‘il va qizlarimiz boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bo‘ldi.

Yoshlarning istiqbolli startaplari, innovatsion ishlarnalari, sun‘iy intellektga asoslangan turli yechimlarini moliyalashtirish uchun biz Qozog‘iston bilan tuzayotgan Qo‘shma venchur jamg‘armasiga Tashkilotning barcha a‘zolarini qo‘shilishga chorlaymiz.

**Uchinchi**dan, transport bog‘liqligini yaxshilash uchun raqamli logistika platformalarini yaratish va integratsiya qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda O‘zbekiston va Tashkilotga a‘zo barcha davlatlar o‘rtasida “E-Permit” elektron ruxsatnomalar tizimi to‘liq ishga tushirilganini katta mamnuniyat bilan ta‘kidlamochiman. O‘rta koridorning strategik rolini kelib chiqib, biz uni ayni paytda qurilayotgan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li bilan bog‘lashga katta e‘tibor qaratamiz.

Chegaralarda bojxona va tranzit tartib-taomillarini yengillashtirish bo‘yicha

inmzolangan Soddalashtirilgan bojxona yo‘lga haqidagi bitimni hayotga tatbiq etish hamda ma‘lumotlar almashuvini to‘liq raqamlashtirishimiz zarur. Bu logistika zanjirlari bo‘ylab ma‘lumotlar uzatish, yuklarni kuzatish va jarayonlarni uyg‘un holda tashkil etish imkonini beradi.

**To‘rtinchi**dan, ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishi davlatlarimizdan muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Bu kabi muammolarga samarali yechim topish uchun sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlari asosida Turkiy davlatlar tashkiloti iqlim xatarlarini monitoring qilish tizimini yaratish muhim. Bunda qurg‘ochilikni barvaqt aniqlash, tuproqning yemirilishi va muzliklarning erishi bilan bog‘liq holatni doimiy kuzatib borish, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish sohasiga sun‘iy intellektni joriy etishga e‘tibor qaratish lozim.

Toshkentdagi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida Turkiy davlatlar yoshlari uchun 2026-2027-o‘quv yillarida 50 ta grant ajratildi. Yoshlarimizni ushbu imkoniyatdan unumli foydalanishga chaqiramiz.

Ekologiya masalalariga e‘tiborni yanada kuchaytirish maqsadida Tashkilotimiz doirasida 2027-yilni “Tabiiy asrash yili” deb e‘lon qilishni taklif etamiz.

Fursatdan foydalanib, sizlarni joriy yilda Samarqandda o‘tadigan Global ekologik jamg‘arma assambleyasida va Suvni tejash bo‘yicha Butunjahon forumida faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Yana bir masala. Terrorizm, ekstremizm va yot oqimlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishdan manfaatdormiz. Bu jarayonda kibernetik sohasidagi

aloqalarni kengaytirish va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash, tezkor axborot almashish dolzarb ahamiyatga ega.

Yangi tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish uchun turkiy dunyo doirasida yagona xavfsizlik va ishonch makonini yaratishimiz lozim. Bu borada umumiy mexanizm — Kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo‘yicha Turkiy alyansini tuzish tashabbusini ilgari suraman.

Shuningdek, sun‘iy intellektidan foydalanishda etika va axloq me‘yorlariga qat‘iy rioya qilish, ayniqsa, muhim. Joriy yilda Samarqand shahrida o‘tkaziladigan Tashkilot tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlar rahbarlarining qo‘shma uchrashuvida bu masalalarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Qadrlidostlar!  
Ulug‘ ajdodimiz Ahmad Yassaviy hazratlarining “Devoni hikmat” asarida birdamlik va ahillik borasida ta‘kidlagan quydagi satrlari bugungi kunda yanada teranroq namoyon bo‘lmoqda:

**Turkiy elga mehr qildim, Birlik yo‘lini haq deb bildim.**

Biz yangi davrda davlatlarimizning intellektual salohiyati va bunyodkorlik qudratini birlashtira olsak, hech shubhasiz, turkiy dunyo ilg‘or yechimlar, barqaror taraqqiyot makoniga aylanadi.

**Asosiy maqsadimiz — farzandlarimizga nafaqat buyuk tariximizni, balki kelajak avlodlarimiz ham faxrlansa arziydigan bebaho merosni qoldirishdir.**

Bugun qabul qilinadigan Turkiston deklaratsiyasi tili va dili bir-biriga chambarchas bog‘langan xalqlarimizning ezgu niyatlarini yanada mustahkamlab, “Turkiy dunyo nigohi — 2040” konsepsiyasida belgilangan yuksak maqsadlarga erishish yo‘lida navbatdagi muhim qadam bo‘ladi deb ishonaman.



# TURKIY DUNYONING YANGI RAQAMLI TARAQQIYOT DAVRI

## Boshlanishi 1-betda

Joriy yil boshidan buyon o'zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma korxonalar, mamlakatlar o'rtasidagi aviaqatnovlarning soni jadal o'sib bormoqda. Turk kompaniyalari ishtirokida salmoqli loyihalar portfeli shakllantirilib, ishlar izchil amalga oshirilayapti.

O'zbekiston va Turkiya rahbarlari xalqaro hamda mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari bilan birgalikda Turkiston shahrining tarixiy-madaniy markazida bo'ldi.

Oliy martabali mehmonlar Markaziy Osiyodagi islom me'morchiligining yorqin yodgorliklaridan biri, Qozog'istonning bosh ma'naviy markazi bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ziyorat qildilar.

**XIV asr oxirida Amir Temur farmoyishiga binoan barpo etilgan ushbu maqbara bugungi kunda UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, Markaziy Osiyodagi o'rtasidagi islom me'morchiligining eng noyob va muhtasham namunalardan biri hisoblanadi. Uning qurilishi 1389-1391-yillarda boshlanib, XIV asr oxiriga qadar davom etgan. Majmuani bunyod etishda Movarounnahr ustalari, shuningdek, boshqa hududlardan kelgan me'mor va naqqoshlar qatnashgan.**

Yetakchilar buyuk so'fiy shoir va mutafakkir xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

Shuningdek, delegatsiyalar rahbarlari "Hazrat Sulton" muzey-qo'riqxonasining tashriflar markazi bilan tanishdi. Bu yerda ziyoratchilar va mehmonlarni qabul qilish, ko'rgazmalar tashkil etish hamda Turkistonning boy tarixiy-madaniy merosini namoyish qilish uchun zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Markazda o'rtasidagi davriga oid noyob merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan doimiy muzey ekspozitsiyasi — "Noyob eksponatlar zali" alohida o'rin tutadi.

Ekspozitsiyada Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi bilan bog'liq nodir tarixiy yodgorliklar, jumladan, XIV-XV asrlarga mansub osori atiqalar, o'rtasidagi asrlar me'moriy va amaliy bezak san'ati hamda kulolchilik namunalari o'rin olgan. Maqbaraning asl eshigi, Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustidagi yopinchiq, Amir Temur tomonidan hadya qilingan bronza shamdonlar, shuningdek, Turkistonning qadimiy tarixini ochib beruvchi arxeologik va keramik topilmalar shular jumlasidan.

Bunday yodgorliklar va madaniy loyihalar ma'naviy merosni asrab-avaylash, tarixiy xotirani mustahkamlash, musharak ildizlar, e'tiqod va an'analar bilan bog'langan qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.

Shu kuni davlatimiz rahbari Turkiya davlatlar tashkilotining "Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" mavzusidagi norasmiy sammitida ishtirok etdi.

Yig'ilish boshlanishidan avval yetakchilar Turkiya sivilizatsiya markazi qurilishiga tamol toshi qo'yish marosimida ishtirok etdi.

Qozog'iston tashabbusi bilan barpo etiladigan ushbu majmua turkiy xalqlarning musharak ildizlari, boy tarixiy-madaniy merosi va sivilizatsiyalar birligini namoyon etishga xizmat qiladi. Loyiha turkiy dunyo mamlakatlari o'rtasida ilmiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, ma'naviy yaqinlikni mustahkamlash, umumiy

qadriyat va an'analarini keng targ'ib etishga qaratilgan.

Shundan so'ng yetakchilarga Qozog'istonning raqamli yechimlari hamda Turkiya davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarining IT va sun'iy intellekt sohasidagi qo'shma tashabbuslari taqdimot qilindi.

Turkiston shahrida bo'lib o'tgan sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, TDT bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr almashilib, ko'p qirrali hamkorlikning bugungi holati va amaliy sheriklikning ustuvor yo'nalishlari atroficha muhokama qilindi.

**Davlatimiz rahbari nutqining avvalida Buyuk ipak yo'lining muhim savdo va madaniyat markazi hisoblangan Turkiston shahrida norasmiy sammit yuksak darajada tashkil etilgani uchun Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevga tashakkur izhor etdi.**

Shuningdek, TDTdagi samarali raisligi hamda tuzilmaning xalqaro nufuzini mustahkamlash yo'lida amalga oshirayotgan sa'y-harakatlari uchun Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevga minnatdorlik bildirdi.

Turkiy dunyo integratsiyasi qardosh xalqlarimiz taqdiriga bevosita daxldor bo'lgan uzoq muddatli strategik masalaga aylanayotgani ta'kidlandi.

— Bugungi uchrashuvimiz jahonda turli ziddiyatlar tobora avj olayotgan davriga to'g'ri kelmoqda. Xalqaro munosabatlarda

ishonch taqchilligi yanada kuchayib, global institutlarning o'rni va ta'siri borgan sari zaiflashmoqda. Bu muammolar bizdan o'zaro muloqotlarni faollashtirib, muhim masalalar bo'yicha uyg'un pozitsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

So'nggi yillarda Turkiya davlatlar tashkiloti barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyish etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Jumladan, 2025-yilda davlatlarimiz umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va uning dinamikasi global o'sishdan ikki barobar yuqori bo'ldi.

**O'tgan yilning o'zida O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foizga o'sdi. Joriy yildan Turkiya investitsiya jamg'armasi operatsion faoliyatini boshladi. Markaziy banklar kengashi, "yashil" moliyalashtirish bo'yicha Turkiya kengashi ishi yo'lga qo'yildi.**

Davlatimiz rahbari oldinda ko'p qirrali munosabatlarga tizimli tus berish bo'yicha dolzarb vazifalar turganini qayd etdi. Qolaversa, sammitning sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish mavzusiga bag'ishlangani ham bejiz emas.

— O'lkalimizda yashab ijod qilgan ulug' bobolarimiz — Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek algoritmi, matematika, astronomiya va fizika fanlari ravnaqiga beqiyos hissa qo'shib, shu tariqa hozirgi sun'iy intellekt rivoji uchun asos yaratganlar. Biz ajdodlarimizning ana shunday bebaho merosiga tayanib, bugun Turkiya dunyoning yangi raqamli taraqqiyot davrini barpo etyapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz o'z nutqida ushbu yo'nalishda hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qator aniq tashabbuslarni ilgari surdi.

O'zbekiston rahbari global texnologik jarayonlarni inobatga olgan holda tashkilot doirasida sun'iy intellekt sohasidagi strategik hamkorlik tarmog'ini shakllantirish lozimligini ta'kidladi. Mazkur tashabbus kvant hisoblash texnologiyalari va yagona raqamli makonni yaratish orqali iqtisodiy o'sishning yangi nuqtalarini belgilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mintaqaviy ma'lumotlar almashinuvini ta'minlovchi "Raqamli turkiy koridor konsepsiyasi"ni ishlab chiqish va Toshkent shahrida TDT a'zo davlatlarining Texnologiyalar forumini o'tkazish taklif etildi.

Ilmiy-ma'naviy merosni puxta o'rganish va targ'ib etish uchun Toshkent shahrida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi mintaqaviy yirik ilmiy-ma'rifiy maskanga aylanib bormoqda. Shu kunlarda majmuada TURKSOYning ofisi ochildi.

— Ushbu markaz TURKSOY va Turkiya akademiyasi bilan tarixiy-madaniy manbalarimizni yagona "katta ma'lumotlar" platformasiga jamlasa, xalqlarimiz uchun foydali ish bo'lar edi, — dedi davlatimiz rahbari.

Sammitda Yassaviy tariqatining bag'rikenglik va ma'rifatparvarlik g'oyalarni hamkorlikda chuqur o'rganish va keng targ'ib etish taklifi ham berildi.

Yosh avlodni zamonaviy kasblarga tayyorlash maqsadida O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi yuqori baholanmoqda. Prezidentimiz yoshlarning startap loyihalarini moliyalashtirish uchun O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan tashkil etilayotgan Qo'shma venchur jamg'armasiga a'zo davlatlarni qo'shilishga chorladi.

Yuk tashish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida a'zo davlatlar o'rtasida "E-Permit" elektron ruxsatnomalar tizimi to'liq

yo'lga qo'yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan o'rtasidagi koridor ayni paytda qurilayotgan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li bilan bog'lash hamda bojxona ma'lumotlari almashinuvini to'liq raqamlashtirish bo'yicha amaliy vazifalar belgilab berildi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi muvofiqlashtirilgan harakatlarni tashkil etish maqsadida 2027-yilni turkiy dunyoda "Tabiatni asrash yili" deb e'lon qilish tashabbusi ilgari surildi.

**Shu bilan birga, sun'iy yo'lidosh ma'lumotlari asosida TDT iqlim xatarlarini monitoring qilib borish tizimini yaratish hamda qurg'oqchilikni barvaqt aniqlash, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish zarurligi qayd etildi.**

Terrorizm, ekstremizm va kibertahdidlarga qarshi kurashishda mustahkam huquqiy va texnologik zamin yaratish maqsadida Kiberxavfsizlik va raqamli infratuzilmani himoya qilish bo'yicha Turkiya alyansni tuzish taklifi berildi.

O'zbekiston yetakchisi o'z nutqi yakunida ta'kidlaganidek, intellektual salohiyat va birlikning uyg'unligi Turkiya dunyoni barqaror taraqqiyot va ilg'or yechimlar makoniga aylantiradi.

Sammit yakunida Turkiston deklaratsiyasi qabul qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga amaliy tashrifi yakunlandi.

## TDT SAMMITIDAGI O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI MINTAQAVIY STRATEGIK HAMKORLIKNI YUQORI BOSQICHGA OLIB CHIQAADI

Xorijiy ekspertlar fikricha, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15-may kuni

Qozog'istonga amaliy tashrifi hamda Turkiston shahrida bo'lib o'tgan Turkiya davlatlar tashkilotining norasmiy sammitidagi ishtiroki Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib, ko'p qirrali hamkorlik rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

"Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" shiori ostida o'tkazilgan sammitda Turkiya davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi. Liderlar e'tiborida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va ekologik sohalarda o'zaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sun'iy intellektidan amaliy foydalanish masalalari bo'ldi.

Yig'ilish dasturiga muvofiq, delegatsiya rahbarlari Turkiston shahrining tarixiy-madaniy merosi bilan tanishib, Markaziy Osiyoning eng buyuk islom me'morchiligi yodgorliklaridan biri bo'lgan va UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ziyorat qildi.

Tashrif doirasida O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining Turkiston shahrida O'zbekiston

tomonidan barpo etilgan masjiddi ziyorat qilishi alohida ahamiyat kasb etdi. Ta'kidlanishicha, Qozog'iston xalqiga sovg'a sifatida qurilgan mazkur me'moriy majmua ikki davlat o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, madaniy yaqinlik, yaxshi qo'shinchilik va ittifoqchilik munosabatlarining ramziga aylangan.

Islom va Sharq me'morchiligi an'analari asosida barpo etilgan ushbu ulkan majmua milliy me'moriy elementlar va zamonaviy muhandislik yechimlarini uyg'unlashtiradi. Ziyorat chog'ida Qur'on o'yatlarini tilovat qilinib, birodar xalqlar tinchligi, barqarorligi va farovonligi uchun duolar qilinadi.

Sammit doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov hamda Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi, davlatlar o'rtasidagi

hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Turkiya davlatlar tashkiloti norasmiy sammitidagi nutqida Turkiya dunyoning yangi raqamli taraqqiyot davrini barpo etish yo'nalishida hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Norasmiy sammit yakunlari bo'yicha Turkiston deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda Turkiya davlatlar tashkiloti doirasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir kelishilgan yondashuvlar, jumladan, raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish va mintaqaviy o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash masalalari o'z aksini topdi.

Umuman olganda, Turkistonda bo'lib o'tgan sammit turkiy dunyo mamlakatlari o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni tizimlashtirishda muhim bosqich bo'ldi.

**Alena PAVLENKO, Ozarbayjondagi "Trend. az" axborot nashri jurnalisti, siyosatshunos:**



— Turkiya davlatlar tashkiloti (TDT) bugungi kunda eng nufuzli mintaqaviy birlashmalardan biriga aylandi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, TDTga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning umumiy yalpi ichki mahsuloti 2,4 trillion dollardan oshdi, tovar ayirboshlash hajmi esa 1,127 trillion dollarga yetdi.

Bu borada O'zbekiston TDT doirasidagi amaliy integratsiyani asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev izchil ravishda iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma loyihalari va hamkorlikning aniq natijalariga alohida urg'u berib kelmoqda. Bu tashabbuslar mamlakatning TDT iqtisodiy kun tartibini muvofiqlashtiruvchi markazlardan biri sifatidagi rolini mustahkamlamoqda.

Jumladan, Toshkent turkiy davlatlar o'rtasida Strategik sheriklik, abadiy do'stlik va birodarlik to'g'risidagi shartnomani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. Shuningdek, TDTning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha alohida "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish taklif

etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston turkiy davlatlarining iqtisodiy sheriklik bo'yicha doimiy kengashini tuzish tarafdori bo'lib, uching loyiha ofisini Toshkentda joylashtirishni taklif qilmoqda.

O'zbekiston TDT doirasida savdo, biznes va o'zaro investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarga ega yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Asosiy tashabbuslar qatorida Turkiya davlatlar sanoat alyansini tuzish, "Turkiya yashil yo'laklar" elektron tizimini joriy etish, strategik mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish, shuningdek, "yashil" energetika va logistika sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish bo'.

"Yashil" energetika sohasida O'zbekiston ishtirokidagi asosiy loyihalardan biri — Markaziy Osiyo energetika tizimlarini Ozarbayjon orqali Yevropa bilan bog'lashga qaratilgan "Yashil energetika koridori"dir.

An'anaviy energetika sohasida ham O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi hamkorlik izchil kuchayib bormoqda. Yaqinda "BP" kompaniyasi O'zbekistonning Shimoliy Ustyurt hududidagi oltita blok bo'yicha mahsulot taqsimotiga oid bitim (PSA) da ishtirok etishini rasman tasdiqladi. PSA bo'yicha kelishuv dastlab 2025-yil 24-iyul kuni SOCAR, "O'zbekneftgaz" va O'zbekiston Energetika vazirligi o'rtasida imzolangan edi. Loyiha amalga oshirishning birinchi bosqichida bo'lib, unda operator sifatida SOCAR seysmik-qidiruv ishlari olib bormoqda. Shuningdek, SOCARning O'zbekistondagi vakolatxonasi ochilishi ham ma'lum qilindi.

O'rtasidagi va multimodal logistikani rivojlantirish ham alohida ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda. "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'lining qurilishi TDT uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda va u O'rtasidagi va multimodal logistikani rivojlantirish ham alohida ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston 600 million dollar kapitalga ega Turkiya investitsiya

jamg'armasi faoliyatini kengaytirishni ham faol qo'llab-quvvatlamog'da. Yaqinda jamg'arma TDT davlatlarida qiymati 20 million dollardan boshlanadigan ilk infratuzilma va logistika loyihalarini moliyalashtirishga tayyor ekani ma'lum qilindi. Toshkent, shuningdek, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan strategik hamkorlik dasturini qabul qilish tarafdori hisoblanadi.

Yana bir muhim yo'nalish — raqamlashtirish va sun'iy intellekt sohasi. TDT davlat rahbarlarining norasmiy sammiti "Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" mavzusiga bag'ishlandi. O'zbekiston bu sohani ham faol rivojlantirmoqda, mamlakatda 2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi amalga oshirilmoqda. TDT davlatlari "CubeSat" formatidagi qo'shma sun'iy yo'lidosh ishga tushirishga tayyorlangan ko'rmog'da.

Umuman olganda, ushbu tashabbuslar TDT doirasida mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekistonning transport bog'liqligi, energetika va texnologik loyihalarni rivojlantirishdagi faol ishtiroki esa TDT doirasidagi hamkorlikni yanada amaliy va aniq natijalarga yo'naltirmog'da.

**Tokon MAMITOV, Qirg'iziston Milliy fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, siyosiy fanlar doktori, professor:**

— So'nggi yillarda Turkiya davlatlar tashkiloti mintaqada iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish va keng ko'lami islohotlarni amalga oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Bu borada O'zbekiston Prezidenti tomonidan TDTni rivojlantirish yuzasidan ilgari surilayotgan taklif va tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston 2019-yildan buyon TDT istiqbolli rivojlanishi bo'yicha yuzdan ortiq amaliy tashabbusni ilgari surdi. Ularning uchdan ikki qismi allaqachon amalga oshirildi — raqamli transport yo'laklaridan tortib, yagona "E-Permit" tizimgacha.

Bu shunchaki statistika emas, balki logistikaning haqiqiy soddalashtirishi, o'zaro savdo hajmining qariyb 11 milliard dollarga yetishi, biznes va fuqarolar uchun aniq loyihalar demakdir. Asosiy yutuq — Turkiya investitsiya jamg'armasining tashkil



etilgani (2023-2024-yillar) bo'ldi. O'zbekistonning faol pozitsiyasiz bu loyiha, ehtimol, uzoq istiqbolga qolib ketgan bo'lar edi. Bugungi kunda jamg'arma energetika, transport va agrokortordagi qo'shma korxonalarini moliyalashtirmog'da.



**Emin GARIBLI, Ozarbayjon davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti:**

— Turkiya dunyodagi integratsiya jarayonlari bugungi kunda tobora tizimli va strategik tus olmoqda. Tarixiy va madaniy yaqinlik asosida birlashgan davlatlar o'rtasidagi hamkorlik umumiy makonni shakllantirish bosqichidan asta-sekin chiqib, to'laqonli mintaqaviy hamkorlik modeliga ayalmog'da. Shu nuqtayi nazardan, Turkiston shahrida bo'lib o'tgan yuqori darajadagi

uchrashuv nafaqat navbatdagi diplomatik voqea, balki turkiy integratsiya arxitekturasining muhim burilish nuqtasi bo'ldi.

Turkiya davlatlar tashkiloti rivojlanish mantig'i deklarativ bosqichdan amaliy hamkorlikka o'tayotganini ko'rsatmoqda. Ilgari asosiy e'tibor madaniy va gumanitar sohalarga qaratilgan bo'lsa, bugun iqtisodiy integratsiya, transport bog'liqligi, raqamlashtirish va texnologik rivojlanish masalalari birinchi o'ringa chiqmoqda. Sammit erishilgan natijalarni mustahkamlabgina qolmay, balki mintaqaning global maydonida raqobatbardoshligini oshiradigan yangi o'sish nuqtalarini ham belgilab berdi.

Sammit o'tkazilgan joy — Turkiston shahri alohida e'tiborga loyiq. Bu shahar nafaqat geografik, balki butun turkiy dunyo uchun chuqur ramziy ahamiyatga ega. Turkiston tarixan ma'naviy markaz, intellektual fikr va madaniy almashinuv maskani bo'lib kelgan. Sammitning aynan shu yerda o'tkazilishi integratsiya jarayonlarining uzviy davomiyligini ko'rsatadi va zamonaviy siyosiy-iqtisodiy kun tartibini boy sivilizatsion meros bilan bog'laydi. Shu tariqa,

Turkiston shahrida bo'lib o'tgan sammit protokol jihatidan emas, balki mazmun nuqtayi nazardan muhimdir. Biz sun'iy intellekt sohasi, AT-kadrlar tayyorlash va umumiy texnologik makonni shakllantirish bo'yicha amaliy qarorlarga o'tilishini kutmoqdamiz.

Shu bilan birga, TDT ochiq tuzilmadir. Turkiya hamkorlik bu — boshqa hamkorlik formatlarini almashirmaydigan, balki ularni to'ldiruvchi ixtiyoriy va pragmatik sheriklikdir.

O'zbekistonning 2022-yilda boshlangan raisligi yakunlarga kelsak, uning asosiy natijasi institutsionlashuv bo'ldi. Ik bor aniq konsepsiyalar va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi, barcha darajalarda yuzdan ortiq uchrashuv o'tkazildi.

Tizimli yondashuv TDT faoliyatining o'ziga xos belgisiga aylandi. Turkiston sammitida O'zbekiston butun turkiy dunyoga qo'shimcha turki beradigan yangi aniq takliflar bilan ishtirok etdi.

Turkiston faqat muzokaralar maydoni emas, balki birlik, tarixiy xotira va umumiy kelajak ramziga ayalmog'da.

Integratsiya jarayonlarini jadallashtirishda O'zbekistonning o'rni alohida ahamiyatga ega. Mamlakatning TDT faoliyatidagi ishtiroki hamkorlik rivojiga yangi sur'at bergan eng muhim omillardan biri bo'ldi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston savdo, logistika, raqamli yechimlar va gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar bilan faol ishtirok etmoqda. Bu esa mamlakatning integratsion makonni shakllantirishga strategik yondashuvini ko'rsatadi.

Ayniqsa, O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan raqamli transport yo'laklari, tranzit infratuzilmasini rivojlantirish hamda innovatsion va ta'lim sohasidagi tashabbuslar a'zo davlatlar iqtisodiyotlarini yaqinlashtirishning real mexanizmlarini shakllantirmog'da. Shu bilan birga, O'zbekiston raisligi davrida joriy etilgan institutsional yangiliklar tashkilot samaradorligini oshirib, unga yanada tizimli va barqaror tus berdi.





Gonkongda O'zbekiston savdo uyi ochilishi biznes tashrifning muhim qismiga aylandi. Bu yerda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar namoyish etiladi.

YANGI O'ZBEKISTON

www.yuz.uz f yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news

# JAHONNING UCHINCHI MOLIVAVIY MARKAZI

Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlrimiz doim barqaror bo'lgan. Bu munosabatlarning ildizi mamlakatlarimizni bog'lovchi asosiy ko'pri — Buyuk ipak yo'li paydo bo'lganidan keyin rivojlanib, bugunga qadar mustahkamlab borganiga tarix guvohlik beradi. Har holda O'zbekistonning eng yirik importyor davlatlari orasida Xitoy hamisha yetakchilik qilib keladi.

## TADBIRKORLARIMIZ GONKONG BOZORIGA KIRIB BORMOQDA

Ammo bu diyordagi nafaqat yirik yetkazib beruvchi, balki aholi soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadigan, juda katta bozorga ega davlat hamdir. O'zbekiston esa keyingi yillarda sanoati eng tez rivojlanayotgan, xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot eksportini oshirayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shildi. Demak, endi milliy mahsulotlarimiz bilan Xitoy bozoriga faol kirib borib, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish vaqti keldi. Ayni maqsad ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarini uzoq yillar davom etib kelgan an'anaviy ko'rinishdan bugungi rivojlanishlarga mos alohida yondashuv va aniq strategik harakatlarga aylantirmoqda.

Yurtimiz tadbirkorlaridan iborat delegatsiyaning shu yil may oyi boshida Xitoyning Gonkong shahriga biznes tashrif buning yaqqol isboti bo'ldi. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi boshchiligidagi 200 ga yaqin biznes egasining Gonkongga safari mamlakatimiz eksport geografiasini kengaytirish, yangi xalqaro sheriklik aloqalarini yo'lga qo'yish, mahalliy korxonalar mahsulotlarini uchinchi bozorlarga olib chiqishga qaratilgan katta qadam sifatida baholamoqda. Qolaversa, bunday yirik formatdagi tashrif hamda biznes uchrashuvlar O'zbekiston va gonkonglik tadbirkorlar uchun yangilik bo'ldi. Shu bois, mazkur biznes missiya mahalliy va xalqaro maydonda qizg'in kuzatib borildi. Tashrifdan kutilgan natijalar, olingan fikr va taassurotlar ham katta ekaniga guvoh bo'ldik.

Tashrif dasturi ilk kundanoq Gonkongdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlar bilan uchrashuvlar, qo'shma loyihalar, investitsiya va eksportni oshirish masalalari muhokamasiga boy bo'ldi, — deydi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov. — Mahalliy tadbirkorlarimiz "Hong Kong Science and Technology Park", "Cyberport" hamda "Hong Kong Productivity Council" kabi yirik markazlarda bo'lib, ilg'or innovatsion tajribalar bilan tanishdi. Qator yetakchi tashkilotlar bilan hamkorlik bitimlari imzolashga erishildi. Ayniqsa, iqtisodiy tadbirlar va biznes uchrashuvlar ikki tomon tadbirkorlari uchun qulay muloqot maydoni yaratib berdi. Tashrifga Gonkong tomonidan juda katta qiziqish bildirilib, tadbirlarda yuqori potensialga ega biznes vakillari ishtirok etdi. O'zbekiston tomonining ko'lami ham mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'rinda ega, delegatsiya tarkibidagi korxonalarimiz yillik umumiy aylanmasi 6 milliard dollar, yillik eksport hajmi 1,5 milliard dollar, yaratilgan doimiy ish o'rinlari esa 52 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bu raqamlar shunchaki statistika emas, balki O'zbekistonning eng yirik va muvaffaqiyatli tadbirkorlari Gonkong bozoriga kirish va strategik hamkorlik o'rnatishga tayyor ekanidan dalolat beradi.

Xususan, delegatsiya tarkibida kimyo sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat, elektrotexnika va IT sohalar yetakchilari ko'rish mumkin. Ular gonkonglik ishlabarmonlar bilan tezda muloqotga kirishib, osongina til topishdi. Har holda xitoyliklar bilan savdoda, hamkorlikda tajribamiz yetarli. Endilikda shu hamkorlikni yangi, katta ko'lamga olib chiqish, yurtimiz mahsulotlarining global bozordagi o'rini mustahkamlash, eksport hajmini oshirish maqsad qilingan.

Dastlab o'tkazilgan iqtisodiy biznes-forumda ayni jihatlariga e'tibor qaratildi. Gonkongning

qoq markazida ikki tomonning rasmiy doira vakillari hamda tadbirkorlari norasmiy shakldagi biznes uchrashuvda jam bo'ldi. Tadbirim an'anaviy formatlardan voz kechilib, erkin muloqot shaklida o'tkazilgan ham do'stona muhitni yaratgan aytilmoqda. Ayni muhitda ikki tomon iqtisodiy imkoniyatlarini namoyish etib, hamkorlikka ochiq ekanini ko'rsatdi. O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatiga bag'ishlangan rasmiy taqdimot esa Gonkong ishlabarmon doiralarda katta qiziqish uyg'otdi.

— Gonkong va O'zbekiston biznes egalari bir-biri haqida bilishni istayotgani yaqqol ko'zga tashlandi, — deydi "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi komissari Ho Lik Chi Nikolas. — Boisi, so'nggi yillarda dunyo hamjamiyati Markaziy Osiyodagi imkoniyatlar haqida ko'proq bilmogda. Ayniqsa, O'zbekiston mintaqadagi eng ko'p aholiga ega va yalpi ichki mahsulot o'sishi bo'yicha tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida alohida o'rin tutadi. Qolaversa, Buyuk ipak yo'li O'zbekistondan o'tgani uchun ham mamlakatning ahamiyati biz uchun katta. Qadimdan rivojlangan aloqalar bugun zamonaviy muloqot maydonini shakllantirayotgani quvonarli. Ochig'i, juda ko'p biznes tadbirlarda bo'lganman, ammo O'zbekiston delegatsiyasi ishtirokida o'tgan uchrashuvlardagi kabi qatnashchilar soni va ishtiroqini yaqin yillarda kuzatmagan edim. Bu gonkonglik tadbirkorlarning o'zbekistonlik ishlabarmonlar bilan faol ishlashga tayyorligini ko'rsatadi.

### 9 million yevrolik shartnoma

Bu jihat Gonkongda ilk bor o'tkazilgan "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasida ham yaqqol ko'zga tashlangani aytilmoqda. Unda iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oluvchi 9 ta tematik stand tashkil etilgan. Jumladan, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, chirm va ipak mahsulotlari, geologiya va konchilik, kimyo sanoati, farmatsevtika, hunarmandlik, zargarlik va turizm yo'nalishlari namoyish etildi.



— Ko'rgazmada yurtimizda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan qatnashdik, — deydi "Denov Agro Star" MCHJ rahbari O'ktam Mahmudov. — Xitoyliklarda mahsulotlarimizga qiziqish juda katta. Ayniqsa,

quritilgan va murabbo ko'rinishidagi limonni tatib ko'rib, ta'mini alohida e'tirof etishdi. Aslida, Xitoy sitrus mevalar yetishtirish bo'yicha jahonda yetakchilardan sanaladi. Shunga qaramay, mahsulotlarimizni import qilishga tayyorliklarini bildirishdi.

Xalqaro ko'rgazmalar haqiqatan yangi hamkorlar topish uchun yaxshi imkoniyat. Qolaversa, mahsulot turi ko'pligi xaridorda tanlov va saralash imkoniyatini oshiradi.

— Korxonamiz tuz mahsulotlari eksporti bilan shug'ullanadi, — deydi surxondaryolik tadbirkor Shahobiddin Boqijonov. — Gonkongdagi ko'rgazma va biznes uchrashuvlar kutganimizdan ko'ra qizg'in o'tdi. Bilamizki, Xitoy dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchi va eksportyor davlatlardan biri. Bozorining katta qismini o'z mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Ammo borib o'rganimizdan so'ng ushbu bozorda import mahsulotlarga ham talab yuqori ekaniga guvoh bo'ldik. Hatto korxonamiz gonkonglik tadbirkorlar bilan 9

million yevrolik shartnoma imzolashga erishdi. Mamlakat tadbirkorlarini bir yerda jamlab, turli davlatlardagi yirik ko'rgazmalarda ishtirokini ta'minlash boshqqa yurtlar tajribasida bo'lmasa kerak. Tasavvur qiling, davlatimiz ko'magida yuzlab ishlabarmonlar muntazam ravishda

xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etib, o'ziga yangi hamkorlar topaypti. Bu biz uchun katta imkoniyat.

Harakatlar kutilgan natijani beryapti ham. Gonkongga amaliy tashrif natijalari kutilganidan ortiq bo'ldi. Bir tadbirkor 9 million yevrolik shartnoma imzolagan bo'lsa, umumiy ko'rsatkichni chamalayvering. Har bir kelishuv va shartnoma mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini, eksport hajmi o'rinishi va ko'proq valyuta tushumi, sohalar va hududlar rivojlanishi, qolaversa, qo'shimcha ish o'rinlari degani.

Tashrif doirasida erishilgan kelishuvlar birin-ketin e'lon qilinganida ayni jihatlar ko'z oldimdan o'tdi. Bunda ikki tomon tadbirkorlari hamkorligi asosiy jihatga aylanadi. Shu bois, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va Gonkong savdoni rivojlantirish kengashi o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumini yuzimiz biznes egalari uchun muhim voqe'lik ekanini aytilmoqda. Bu mamlakatimiz tadbirkorlarining Gonkongda kompaniya ochish imkoniyatlarini ham oshiradi.

— Gonkong savdoni rivojlantirish kengashi 60 yillik tarixga ega bo'lib, bugungi kunda dunyo bo'ylab 51 ta ofisi mavjud, — deydi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov. — Mazkur yirik tashkilot xalqaro savdoni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, yangi xalqaro bozorlar va IPOga chiqishga yordam beradi. Bu tadbirkorlarimiz uchun yangi imkoniyat. Endilikda ana shu tuzilma bilan mustahkam hamkorlik o'rnatilgani muhim yutuqlarimizdan biri.

Yana bir kelishuv esa O'zbekiston va Gonkong o'rtasidagi aviaqatnovlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ikki tomon aviatsiya sohasi mutasaddillarining ilk uchrashuvi 2024-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan. O'shanda erishilgan kelishuv natijasida 2025-yil davomida ikki o'rtada 630 ta, 2026-yilning o'tgan to'rt oyida esa O'zbekiston hamda uchinchi davlatlarga 296 ta transfer yuk tashuv aviaqatnovi amalga oshirilgan. Endilikda tomonlar o'rtasida muntazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha bitim loyihasi tayyorlanib, tashrif doirasida Gonkong tomonga taqdim etildi. Mazkur bitim joriy yil iyun oyi yakuniga qadar imzolanihi kutilyapti. Unga qadar esa ikki

tomon manfaatlariga mos keluvchi paritetlar asosida 5-havo erkinligida parvozlariga ruxsat berish, 3- va 4-havo erkinligida cheklanmagan miqdorda yo'lovchi va yuk tashish parvozlari

“

— Gonkong savdoni rivojlantirish kengashi 60 yillik tarixga ega bo'lib, bugungi kunda dunyo bo'ylab 51 ta ofisi mavjud, — deydi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov. — Mazkur yirik tashkilot xalqaro savdoni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, yangi xalqaro bozorlar va IPOga chiqishga yordam beradi.

amalgal oshirish huquqini beruvchi kelishuv imzolandi.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va Gonkong Bosh savdo palatasi o'rtasida imzolangan hamkorlik to'g'risidagi memorandum ham muhim natijalardan biri. Nufuzli tuzilma Gonkongning eng yirik uyushmalaridan bo'lib, 4 mingdan ortiq kompaniyani birlashtiradi. Palata xalqaro savdo, investitsiyalarni jalb qilish va biznes muhitini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Endi bu tashkilot bilan "yashil" energetika, investitsiya, sanoat kooperatsiyasi va tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha faol hamkorlik qilinadi.

Tashrif davomida Xitoyning "Gotion", "China Southern Power Grid", "Great Wall Motor" kabi o'nlab yirik kompaniyalari bilan hamkorlik muhokama qilindi. Ularning aksari muhim shartnomalarga asos bo'lishi rejalashtirilgan.

### Savdo uyi ochildi

Gonkong dunyoning uchinchi moliyaviy markazi, Osiyoda esa eng yirik savdo maydonlaridan biri. Xitoyning 400 milliard dollardan ziyod iqtisodiyot va katta logistik imkoniyatlarga ega muhim ma'muriy hududi. Bu markazda tajriba ham, iqtisodiy imkoniyatlar ham katta. Endi bu imkoniyatlar O'zbekiston uchun keng ochilishi mumkin. Har holda tadbirkorlarimizning Gonkongga amaliy tashrif

behuda bo'lmadi. Ishlabarmonlarning xorijiy biznes missiyalarga qiziqishini oshiruvchi asosiy omil ham erishiladigan natijalardir.

— Gonkong juda katta bozor va mahalliy ishlabarmonlarimiz uchun ana shu bozorga kirish imkoniyati yaratildi, — deydi tadbirkor Gulnoza Muhiddinova. — Turizm sohasida faoliyat yuritganim bois, ayni yo'nalishda Gonkong tajribasini o'rganishga intildim. Bu bo'yicha ularda juda katta tajriba bor. Gonkongga bir yilda 50 millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Hamkorlar topish bilan birga ana shu tajribani o'rganish ham men uchun qiziq bo'ldi. Ba'zi yangicha yondashuvlarni o'zimizda qo'llashni o'ylayapman.

Gonkongda O'zbekiston savdo uyi ochilishi biznes tashrifning muhim qismiga aylandi. Bu yerda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar namoyish etildi. Xorijlik hamkorlar shu yerning o'zida mahsulotlari bilan tanishib, buyurtma berishi mumkin. Qolaversa, ikki tomon tadbirkorlarining ayni manzil orqali aloqa o'rnatishi osonlashadi.

Turli davlatlarda O'zbekiston savdo uylari ochilishi keyingi yillarda ancha faollashgan. Bu

yurtimiz milliy mahsulotlari brendini jahonga tanitish, savdo va eksportni oshirishda yaxshi natija beryapti. Ammo Gonkongda ochilgan savdo uyi bir oz boshqacharoq. Gap shundaki, unga Gonkongda talayot olingan o'zbekistonlik talabalar vakil sifatida jalb etildi.

— Savdo uyida Gonkongdagi 25 ga yaqin talaba bilan birgalikda ishlaymiz. Har bir vakil o'zi tashil olgan yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatadi, — deydi Gonkong poliximika universiteti bitiruvchisi Sarvinov Odilova. — Shaxsan o'zim yaqinda universitetning mehmonxona va turizm menejmenti yo'nalishi bo'yicha o'qishni tamomladim. Demak, savdo uyidagi faoliyatim ayni yo'nalishda bo'ldi. Hozircha yurtimizdagi sayyohlik agentliklarini Gonkong bilan bog'lash, O'zbekistonga xitoylik sayyohlarni keng jalb etish haqida o'ylayapman. Bizning missiyamiz O'zbekiston hamda Gonkong biznes vakillari o'rtasida ko'priq vazifasini o'tashdan iborat. Buni jon-dilimiz bilan amalga oshirishni istaymiz.

Talaba yoshlarga bu vazifa topshirilishi bilan ko'pchiligi loyihalar haqida o'ylay boshlaganini aytmogda. Mazkur loyihalar faqatgina savdo hajmini oshirish emas, balki hamkorlikning yangi va zamonaviy yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu orqali mamlakatimizning xorijdagi savdo uylari shunchaki hamkorlar topishdan ko'ra muhimroq nuqtaga aylanadi.

Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## IMPORT QISQARADI, NARX ARZONLASHADI



Agrolam

Taomimizga o'ziga xos maza, ta'm beradigan zirani ko'pchiligimiz adirlik, tog'larda o'sadi deb o'ylaymiz. To'g'ri, u tog' yonbag'irlarini xush ko'radigan o'simlik, biroq ilm-fan uni oddiy dala sharoitida ham yetishtirish mumkinligini isbotlagan. Mamlakatimizda ham tajriba tariqasida zirani hududlarda ekish tavsiya qilindi. Bu yangi tajriba bo'libgina qolmay, narxi arzon bo'lmagan ziravor importini qisqartirish yo'lida muhim qadamdir.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashriflaridan birida iqlim sharoiti yurtimizning o'xshash qator xorijiy davlatlarda ilmiy salohiyatni ishga solib, paxtadan 70 sentnergacha hosil olinishini aytgandi. Ayniqsa, Andijonda yerdan ikki karra samarali foydalanish zarurligi ta'kidlanib, g'oz'a qator oralariga soya ekish bo'yicha Andijon tajribasini yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

Endilikda viloyatdagi soha vakillari g'oz'a bilan birga soya, yer yong'oq, sevoq piyoz, turli sabzavot ekinlari qatori zira yetishtirish bo'yicha ham ilmiy-amaliy taqiqotlar o'tkazmoqda. O'rganishlarga ko'ra, zira urug'i faqat Shinjon usulida chigit ekilgan maydonlarga yondosh ekin sifatida

joylashtiriladi. U g'ozaning asosiy rivojlanish bosqichlariga jiddiy raqobat tug'dirmay, qator oralarida ekiladi. Hosili esa iyunda yig'ishtirib olinadi. Bu jarayonda agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda rejalashtirish, ekish muddatlari va oziqlantirish me'yori to'g'ri belgilash, sug'orish rejimini muvofiqlashtirish zarur.

Ushbu jarayonda nav tanlash juda muhim. Bunda hosildorligi yuqori, tashqi stress omillariga bardoshli va bozor talabidan kelib chiqqan holda ekiladigan navni tanlash, urug'ning to'la, o'lchami va rangi bir xil, serhosil va turli kasalliklarga chidamli bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda mahalliy sharoitda yetishtirilgan kelinayotgan Xitoyning serhosil va kasalliklarga chidamli Siyuncchen-1, Shinjon



zirasi, Sin zirasi, shuningdek, "Samarqand", "Tojikiston", "Eron", "Andijon" kabi zira navlarini ekish tavsiya etilmoqda.

Xushbo'y hidi va tarkibidagi efir moyi tufayli zira g'ozaning turli kasalliklar bilan zararlanishini kamaytirishga xizmat qiladi. Qolaversa, g'oz'a qator orasiga zira ekish yer, suv, o'g'it va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligini ham oshiradi. Eng muhim, gektardan o'rta 30-35 million so'gacha qo'shimcha daromad olish imkoni bo'ladi.

Shundan kelib chiqib joriy yil Namanganda ham 112 fermer xo'jaligining 400 gektar maydoniga tajriba tariqasida zira ekilyapti. Mas'ullarga To'raqo'rg'on tumanidagi Paxtachilik ilmiy-tadqiqot tajriba stansiyasida tashkil etilgan viloyat sementarida zirachilik bo'yicha batafsil ma'lumot, amaliy ko'rsatmalar berildi.

— 2026-yil hosili uchun Shinjon usulida yetishtiriladigan paxta maydonlarining bir qismida interkop (hamkor ekin) usulida zira

ekish belgilandi, — deydi Namangan viloyati urug'chilikni rivojlantirish davlat muassasasi markazi rahbari Oybek Haydarov. — Buning uchun Hindistondan 1200 kilogramm "NICM 550" navli elita urug'lik zira olib kelindi. Gektariga o'rta 15 kilogrammdan urug'lik sepiladi. Bugun g'oz'a qator oralaridan tashqari ochiq maydonga ham zira urug'i ekilmoqda. Dastlabkilar unib ham chiqdi. Zira o'simligi tabiiy himoya vositasi ekanini bizga juda da'vo' keladi. O'tkir hidi bilan chigitni hasharotlardan

himoya qilgani sabab kimyoviy vositalarga ehtiyojimiz kamayadi. Ayni paytda viloyatimiz hududlarida zira ekish ishlari davom etmoqda.

Darhaqiqat, hozir tajriba uchun belgilangan tumanlarda ish qizg'in. Mingbuloq tumanidagi "Ixlosa Fotima Husanboy" fermer xo'jaligining 40 gektar paxta maydonida zira hamkor ekin sifatida ekildi. To'raqo'rg'on tumanidagi 4 ta fermer xo'jaligining 26 gektar yerida, Uchqo'rg'on tumanining 60 gektar maydonida ilk bor qo'shimcha ekin urug'i qadalyapti.

Bu yil viloyatda tajriba sifatida chigit rangli plyonka ostiga ekilmoqda. Bugungacha 70 gektar maydonda oq, qizil hamda ko'k rangli plyonka ostiga chigit ekildi. Zirani ham plyonka ostida intensiv texnologiya asosida yetishtirish bo'yicha amaliy seminarlar o'tkazilib, mutasaddilarga yuqori hosildorlikka erishishning zamonaviy usullari o'rgatilyapti.

Bir paxta maydonidan olinadigan zira hosili katta bo'lmaydi, biroq mazkur tajriba yerning unumdorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va dalalardan ikki xil hosil olish imkoniyatini beradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, bir gektar yerdan o'rta 300 va 500 kilogramm zira olinadi. Agar u o'rta 30 ming so'mdan sotilga ham paxtachilikka sarflangan xarajatni paxta hosili yetilmay turib o'z vaqtida qoplash mumkin. Bu esa dehqon uchun katta yangilik, iqtisodiy barqarorlik va yangi imkoniyatlar demak. Yangi yondashuv, zamonaviy texnologiya va dehqon mehnati uyg'unligi kelgusi yillarda mamlakatimiz dalalarida yanada keng miqyosda qo'llanib, paxtachilikda qo'shimcha daromad manbai sifatida o'zini to'liq oqlaydi.

Munojat RAHIMJON qizi,  
jurnalist

Prezident maktablari qisqa muddatda xalqimiz, ota-onalar va o'quvchilarning ishonchi hamda e'tirofiga sazovor bo'lib ulgurdi.

"Insonning ertangi kuni bugun nimani o'ylayotgani va nima qilayotgani asosida quriladi", degan edi ulug' alloma Abu Nasr Forobiy. Ha, kelajak tasodif, omad yoki istak bilan yaratilmaydi. U ilg'or va ezgu fikrlar hamda ularni amalga oshirish yo'lidagi intilishlar mahsuli o'laroq bunyod etiladi. Shu ma'noda, barcha sohada yuz berayotgan o'zgarishlar, islohotlar bevosita bilim bilan bog'liq.

Ta'limga e'tibor, bilim olishning imkoniyatlari, shaxsni barkamol etib tarbiyalash — bularning barchasi mamlakat taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilishi kunda ravshan. O'qitish sifatini oshirish usullari, samarali dasturlar yaratish va amalda qo'llashga oid ishlar tizimli tus olganing boisi ham shunda, aslida. Bilim olish, malaka va shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichi asosi esa maktab ta'limida.

Umumta'lim maktablarini bitirish tantanasi kabi ularga qabul qilish ham o'ziga xos hayajonli va mas'uliyatli jarayon. Prezident maktablariga

2026/2027-o'quv yili uchun hujjatlar qabuli 25-maydan 14-iyungacha davom etmoqda. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'ziga xos jihatlari bor. Biroq yaqin yillarda tashkil topgan uchunmi, Prezident maktablari to'g'risida ko'pchilik tuzukroq tasavvur va tushunchaga ega emas. Ayrimlarda maktabning maqomi, nufuzi, avvalo, nomlanishi bilan bog'liq degan yangilash tasavvur mavjud. Aslida, shu kabi bir yoqlama qarashlarga mazkur ta'lim muassasalarida bilim olayotgan o'quvchilar erishayotgan natijalar eng munosib javob.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!




TOSHKENT SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI

PRESIDENTIAL SCHOOL IN TASHKENT

## Iqtidorli yoshlar — mamlakat kelajagi

# PREZIDENT MAKTABLARI ILG'OR TA'LIMNING O'ZIGA XOS YAGONA KOMPLEKS TIZIMI



Rustam BOYTO'RA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

### Yuksak maqsad muqaddimasi

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida respublikamizning barcha hududlaridagi iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk, intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish ko'zda tutilgan. Qaror ijrosi doirasida yurtimizning barcha hududlarida bosqichma-bosqich shunday tipdagi maktablar tashkil etildi. Hozir Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Qarshi, Navoiy, Namangan, Nukus, Nurafshon, Samarqand, Farg'ona, Xiva, Termiz va Toshkentda — jami 14 ta Prezident maktabi faoliyat yuritib keladi.

Xo'sh, bu ta'lim muassasalarining boshqa maktablardan farqi, aytaylik, afzalligi nimalardan iborat?

Albatta, Prezident maktablari birgina ezgu istak, qaror, standart o'quv dasturi asosida tashkil etilmagan. Qator nufuzli tashkilotlar, xususan, Xalqaro maktablar kengashi, "Pearson Edexcel" tashkilotining akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tib, xalqaro maktab maqomiga erishgan. Bundan tashqari, SAT (akademik baholash testi) xalqaro sertifikatida Cambridge va "Pearson Edexcel"ning IGCSE, AS va A Level imtihonlarini o'tkazadigan rasmiy markazlarga aylantirilgan.

Prezident maktablari davlat tomonidan to'liq moliyalashtirilgan, unga qabul 4-sinfni a'lo baholarga bitirgan o'quvchilarning onlayn ariza topshirishi bilan boshlanadi. So'ng ikki bosqichda

o'tkaziladigan imtihon natijalariga ko'ra eng bilimdonlar saralab olinadi. Kirish imtihonlari natijasini Kembrij universiteti mutaxassislari tekshirib baholaydi. Keyinchalik o'qishga qabul qilinganlar ayni tarmoq dasturi asosida o'qitiladi. Xususan, tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rgatish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlarni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Darsliklarga tegishli fan bo'yicha muhim ma'lumotlar to'plami sifatida qarash mutlaqo noto'g'ri. Maktablarda darsliklar tizimlashtirilgan bilimlar manbai bo'lib, davlat standartlariga mos kelishi kerak. Ular o'quvchilarning yoshi inobatga olingan holda va mustaqil, tanqidiy-tahliliy fikrlashga ko'maklashadigan, rivojlantiradigan shakl va mazmunda tayyorlanishi lozim.

Prezident maktablari darsliklari ilg'or xalqaro tajriba (Cambridge Assessment) asosida, STEAM yondashuvini qo'llagan holda mutaxassislardan iborat bo'lib, davlat standartlariga mos kelishi kerak. Ular o'quvchilarning yoshi inobatga olingan holda va mustaqil, tanqidiy-tahliliy fikrlashga ko'maklashadigan, rivojlantiradigan shakl va mazmunda tayyorlanishi lozim.

Prezident maktablari darsliklari ilg'or xalqaro tajriba (Cambridge Assessment) asosida, STEAM yondashuvini qo'llagan holda mutaxassislardan iborat bo'lib, davlat standartlariga mos kelishi kerak. Ular o'quvchilarning yoshi inobatga olingan holda va mustaqil, tanqidiy-tahliliy fikrlashga ko'maklashadigan, rivojlantiradigan shakl va mazmunda tayyorlanishi lozim.

Ayni jihatdan o'qituvchilarning o'rni va ahamiyati alohida. Ular ilg'or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etib, ta'limni modernizatsiyalash vazifalariga mos holda har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini ishga soladi.

Oddiy umumta'lim maktablaridan tortib, barcha tipdagi ta'lim muassasalarida pedagoglar va darsliklar mavzusi chambarchas ahamiyatga ega. Prezident maktablari ta'lim ikki asosiy o'quv dasturi asosida olib boriladi: birinchisi — xalqaro Kembrij o'quv dasturi, ikkinchisi — milliy o'quv dasturi. Kembrij dasturi asosida o'qitiladigan fanlar uchun darslik va o'quv materiallari to'g'ridan-to'g'ri Cambridge University Press tomonidan ta'minlanadi.



Bu materiallar xalqaro akademik standartlarga javob beradi va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, tahlil hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Milliy o'quv dasturi asosida o'qitiladigan fanlar uchun darsliklar esa davlat tomonidan tasdiqlangan va taqdim etilgan o'quv adabiyotlari asosida tashkil etiladi, — deydi Toshkent shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori vazifasini bajaruvchi Xumuroy Ashirova. — Ayni paytda maktabimizda 38 pedagog faoliyat yuritmoqda. Ulardan 27 nafari mahalliy, 11 nafari xorijiy mutaxassislardir. Xorijlik muallimlar turli mamlakatlardagi ilg'or ta'lim tajribasini maktabimizga olib kirib, xalqaro akademik muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu tarkib milliy qadriyatlar va global ta'lim tajribasining muvofiqatli uyg'unligini ta'minlaydi.

Hozir Prezident maktablari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga agentligi tizimiga kiritilgan. Tizim ta'lim mazmuni, boshqaruv shakli, xalqaro dasturlar integratsiyasi va o'quv muhitining kompleks ravishda ishlab chiqilganligi bilan o'ziga xos va noyob.

Agentlik ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda Prezident maktablari muayyan darajada o'xshash modelda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalari bor. Ular iqtidorli o'quvchilarni tanlov asosida qabul qilishi, davlat tomonidan moliyalashtirilishi, zamonaviy laboratoriyalar va kuchli STEAM yo'nalishiga egaligi hamda xalqaro universitetlarga tayyorlash imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bunday maktablarda ta'lim ilmiy tadqiqot, innovatsiya va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, Turkiyaning Fen Lisesleri, Janubiy Koreyaning Science High Schools, Singapurning NUS High School of Mathematics and Science, Qozog'istonning Nazarbayev Intellectual Schools hamda Birlashgan Arab Amirliklarining Applied Technology Schools maktablari ana shunday yuqori maqomdagi ta'lim muassasalari. Boshqa davlatlardagi nufuzli maktablar ayrim jihatlari bilan biz so'z yuritayotgan ta'lim dargohlariga o'xshash bo'lsa, ta'limning bir xil emas, ya'ni Prezident maktablari kabi barcha yo'nalishlarni qamrab olgan yagona kompleks tizim emas.



### Maqomga munosib natijalar

Prezident maktablarining Xalqaro maktablar kengashiga a'zo bo'lishi ta'lim muassasasining xalqaro darajada tan olinganidan darak. Bu ushbu tipdagi maktabda tahsil olayotgan o'quvchilarning chet eldagi nufuzli universitetlarda o'qish uchun grant yutish imkoniyatini yanada oshiradi. Fikrimizning isboti o'laroq, xorijiy universitetlarga o'qishga to'liq grant asosida qabul qilinayotgan yoshlar safi yil sayin ortib borayotganini ko'rsatish mumkin. Misol uchun, 2023-yilda Namangan shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi dunyo reytingida 4-o'rinda turadigan Garvard universitetiga, 2024-yilda Toshkent shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Garvard va Princeton universitetlariga 100 foizlik grant asosida o'qishga qabul qilindi. 2025-yilda Guliston shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Chikago universitetiga, Nukus shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi esa Pechak ligasiga kiruvchi Braun universitetiga grant yutib oldi.

Joriy o'quv yilida ham Farg'ona shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Dilafuz Sobirova Garvard universitetida 100 foizlik grant asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu kabi yutuqlar yildan yilga ortib bormoqda. Ular ko'pchilik va bunday intilish mustamazam davom etmoqda.

Shuningdek, Toshkentdagi Prezident maktabi "Zayed Sustainability Prize" mukofotining "Global o'rta maktablar" nominatsiyasida g'olib bo'ldi. Ushbu maktabning ikki o'quvchisi Pahlavon G'ulomov va Asilbek Ashrapov hamda ularning ustози Sobixon Azizovning yomg'ir suvini ichishga yaroqli darajagacha qayta ishlash bo'yicha loyihasi birinchi o'rinda munosib ko'riladi. Tanlovga 156 davlatdan jami 5980 ta ariza kelib tushganini e'tiborga olsak, bu yutuq zalvori ancha baland ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Prezident maktablari qisqa muddatda xalqimiz, ota-onalar va o'quvchilarning ishonchi hamda e'tirofiga sazovor bo'lib ulgurdi. Yaratilgan imkoniyatlar va erishilayotgan yutuqlar esa ularda o'qishga talabgorlar soni yil sayin oshishiga sabab bo'lyapti. Birgina Toshkent shahridagi Prezident maktabi misolida aytak, o'tgan yilgi qabul natijalariga ko'ra, bitta o'rin uchun 108 nomzod hujjat topshirgan. Bu esa tanlov juda yuqori darajada ekanini va jamoatchilik ishonchi yildan yilga mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

# ZAMONAVIY DASTUR VAQTNI TEJAB, ANIQLIKNI OSHIRYAPTI

## U orqali endilikda oshqozon saratonining ertaroq oldini olish mumkin

Har qanday quayalik, yangi g'oyalarni qiyinchiliklarga yechim sifatida dunyoga keladi. Amerikalik taniqli aktrisa Jessika Alba ham bolaligidan allergik kasalliklardan aziyat chekkani bois, o'zining kimyoviy moddalardan xoli, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyasiga asos solgan. Aytmoqchi bo'lganimiz — inson hayotiga, sog'liqqa daxldor muammolarni yengillashtridigan loyihalar amaliyotga tez tatbiq etiladi. Zero, dardning yaxshi-yomoniy yo'q.

Oddiy deb biladiganimiz — allergiya, kundalik bosh og'rig'ining ham oldini olmasak, uch'ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda kasalliklarni barvaqt aniqlash usullari ustida ko'plab izlanishlar qilinayapti.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan respublikamiz miqyosida o'tkazib kelinayotgan Olima ayollar forumi doirasida o'tgan yili oshqozon saratonini barvaqt aniqlovchi loyiha 710 million so'mlik grantga loyiq ko'rilgan. Bugun u innovatsion yechimga aylandi. Zero, loyihaga yo'naltirilgan mablag' tibbiy tahlil jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga, erta tashxis yo'yish imkoniyatlarini qariyb 20 foiz oshirishga xizmat qila boshladi. U orqali oshqozonning endoskopik tasvirlari chuqur tahlil qilinib, nafaqat saratonga xos o'zgarishlar, balki boshqa patologik holatlar ham aniqlanmoqda. Tizim inson ko'zi ilg'amaydigan mayda detallarni ajratib ko'rsata olishi bilan ahamiyatli.

Dunyo miqyosida oshqozon saratonini tarqalishi va o'lim darajasi bo'yicha 5-o'rinda, O'zbekistonda esa 2-o'rinda turadi. Ushbu



### Innovatsion yondashuvlar

kasallik bir kunda yoki to'satdan paydo bo'lmaydi. U uzoq vaqt davom etadigan kasalliklar va omillar natijasida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Surunkali gastrit (oshqozon yallig'lanishi) oshqozon yarasiga aylanadi, oshqozon shilliq qavati ingichkalasga boshlaganidan so'ng hujayralar nazoratsiz tarzda ko'payib, o'sma hosil qiladi. Loyiha shu ma'noda ham muhim sanalib, saratonni erta aniqlash va tibbiyotda sun'iy intellektidan keng qamrovli foydalanish borasidagi vazifalarga aynan mos. Asosiy maqsad — tasvirlarga raqamli ishlav berish, endoskopik videotasvirlarda oshqozon yaralari va saratonini

aniqlash uchun chuqur neyron tarmoq modeli, algoritmlari va dasturiy vositasini ishlab chiqish orqali gastroenterologiyada tashxislash sifatini oshirish. Soddaorq aytdigan bo'lsak, dastur oshqozon yaralari va saratonni tanib olish va aniqlash sifatini oshirishga hamda shifokor tomonidan o'tkazib yuborilishi mumkin bo'lgan holatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Dasturi ishlab chiqish g'oyasi gastroenterologlar faoliyatida ko'proq uchraydigan qiyinchiliklar, xususan, aniq tashxis qo'yish bilan bog'liq muammolar sabab tug'ildi, — deydi loyiha rahbari Kamola Abdurashidova. — Loyihamiz doirasidagi dasturi shu yil mart

oyida yakuniga yetkazdik va yaxshi natijalar oldik. Ayni paytda u shifokorlarga oshqozon-ichak kasalliklarini aniqlashda yordam beryapti. Hozirgacha taxminan yuzdan ortiq bormoqda qo'llanildi. An'anaviy usuldagi tashxis vaqti 20-30 daqiqaga bo'lsa, dastur bilan 5-7 daqiqada tashxis qo'yishga erishilayapti.

To'g'ri, dastur shifokorning o'rni bosolmaydi, biroq o'sha mutaxassisa tezkor va aniq qaror qabul qilishda yordamchi hisoblanadi.

Loyiha ustida shifokor, kichik va katta ilmiy xodimlardan iborat o'ng'aga yaqin ayol bir jamoa bo'lib ishladi. Bu nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlab, dasturning ishonchligini yanada mustahkamlashda muhim omil bo'ldi. Loyiha rahbari dotsent Kamola Abdurashidova Buyuk Britaniyaning Olster universitetida tibbiyotda sun'iy intellektidan foydalanish borasidagi ishlar bilan ham tanishdi. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i sifatida ishlab kelayotgan qahramonimiz ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanish barobarida oliygohning kompyuter tizimlari kafedrasida dars beradi. Shuning uchun unga chet eldagi universitetda oshqozon saratonini aniqlashdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar yuzasidan ma'ruza o'qish qiyin kechmadi. Olima, shuningdek, Olster universiteti bilan PhD dasturlari bo'yicha grantlar olish, Computer Science, Game Development yo'nalishlarida qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish kabi ishlar yuzasidan muzokaralar o'tkazdi.



Yaqinda hamkorlar ham Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga tashrif buyurdi. Ilmiy tadqiqotlar yuzasidan fikr va tajriba almashilib, qo'shimcha kelishuvlarga erishildi. Ajabmaski, bu hamkorlik yaqin kelajakda yana ko'plab kasalliklarni barvaqt aniqlash borasidagi dasturlarga xizmat qilsa.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetida olim ayollar safi tobora kengayib boryapti. Birgina Olima ayollar forumida oliygohning 4 olim ayoli loyihalari uchun grant yutib olgani buning isboti. Ko'krak bezi saratonini sun'iy intellekt yordamida barvaqt aniqlovchi dastur ham aynan shu oliygoh olimasi boshchiligidagi xayrli ishlardan biri bo'lgandi.

Oshqozon saratonini barvaqt aniqlash borasidagi loyiha ishtirokchilaridan biri Sayyora Iskandarovaning aytishicha, har bir professor-o'qituvchi o'zining ilmiy ish yo'nalishiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun bugun barcha sharoitlar mavjud. Ilm-fan bilan shug'ullanayotgan ayollar alohida qo'llab-quvvatlanayapti. Shunday imkoniyatlar davrida u yaxshi bir dasturni yaratishga taklif etilganidan minnatdor.

Mazkur loyiha bilan ko'plab ijobiy natijalarga erishdik, — deydi Sayyora

Iskandarova. — Shifokor bemorni tekshirayotgan vaqtda zondni ikki-uch marta yuttirishga, o'sha videotasviri qayta-qayta ko'rishga majbur bo'ladi. Dasturimiz esa videotasvirlarni kompyuterga yozib, ularni o'zi tahlil qilib beradi. Bu shifokorning ham, bemorning ham vaqtini olmaydi. Agar shifokor yosh, tajribasizroq bo'lsa yoki charchagan holatida ham sun'iy intellekt modellari uning xato qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Loyiha yetakchisi esa dasturning eng ahamiyatga molik jihati tizimning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyati borligida deya baholadi. Aslida ham bu eng muhim jihat. Dasturdan qancha ko'p foydalanilsa, u shunchalik takomillashib, rivojlanib boradi. Endoskopdan olingan tasvirlar qancha ko'p yuklansa, sun'iy intellekt o'zini o'zi o'qitib, tashxis qo'yish aniqligini 100 foizgacha oshirishi mumkin.

Kasallikning boshlang'ich holatlarda aniqlanishi unga oldinroq davo choralarini ko'rilib, keyingi og'ir holatlarga o'tmasligini ta'minlaydi, — deydi subhat so'ngida Kamola Abdurashidova. — Bunday imkoniyatning borligi ham bir baxt, aslida. Xayrli ishlarga sababchi bo'lish bizga juda katta mas'uliyat beradi. Sog'liq ketishi aniq bo'lgan bemorlar bilan biz ham baxtni birdek his qilamiz. Zero, har qanday loyiha ishtirokchilari uchun eng muhim natija texnologiya emas, inson hayoti. Birgina bemorning sog'lig'ini asrashga xizmat qilgan loyiha ham mualliflar uchun katta yutuq hisoblanadi.

Ezgu niyatda jamlangan bitta jamoaning mehnati bilan yuzlab, minglab insonlar sog'lig'ini tiklanar ekan, bunday jamoalar kun sayin ko'payishi kerak. Ularga har qancha grantlar ajratilsa, mehnatlari har qancha e'zozlansa kam. Intellektual salohiyatli ayollarni ko'paytiramiz. Ajabmas, qizlarimizni o'qitish orqali jamiyatga qanday foyda keltirishimiz mumkinligini ular timsolida yanada teranroq anglab borsak.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

6  
Sehrl  
CHAPAQAY  
HABIBULLOH HAYDAR“Sehrl  
CHAPAQAY”  
filmiSHONLI G‘ALABALARGA  
CHORLOVCHI ASAR

Kuni kecha poytaxtimizdagi “Renessans” kino uyida o‘zbek kino san‘ati va sporti uyg‘unligi sifatida baholanayotgan loyiha – “Sehrl chapaqay” badiiy filmi premyerasi o‘zgacha shukuh, ko‘tarinki ruhda o‘tdi.



Taqdimot

Ushbu taqdimotni shunchaki oddiy madaniy voqealardan biri deb baholash kamlik qiladi. Zotan, buni so‘ngi yillarda yurtimizda yoshlar kamoloti hamda sport ravnaqi yo‘lida qilinayotgan tizimli ishlohtlarning o‘ziga xos badiiy in‘ikosi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Kinematografiya agentligi, OAV uchun kontent tayyorlash markazi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘FA hamda “Your films entertainment” hamkorligida yaratilgan mazkur kinoasor tomoshabinlar e‘tiboriga oddiy sport xronikasi emas, inson irodasi, matonati va milliy qadriyatlarimiz madhi sifatida taqdim etildi.

Yangi O‘zbekistonning bugungi qiyofasiga nazar tashlar ekanmiz, sportga munosabat, e‘tibor mutlaqo yangi, sifat jihatidan yuksak bosqichga ko‘tarilganiga guvoh bo‘lamiz. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus, shuningdek, sohaga oid qator farmon va qarorlarning amaliy namunasi allaqachon mevalarini bermoqda. Jumladan, futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasining jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritishi faqatgina sportdagi ulkan yutuq emas, butun xalqimiz qalbiga cheksiz g‘urur va iftixor olib kirgan chinakam tarixiy g‘alaba bo‘ldi. Tan olish kerak, bunday yuksak natijalar zamirida sport infratuzilmasini tubdan yangilash, eng chekka qishloqlarda ham iste‘dodli yoshlarni kashf etib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi tinimsiz, zahmatli mehnat yotibdi. “Sehrl chapaqay” filmi xuddi shunday sog‘lom muhitda kamol topgan, yuksak orzulari sari tinmay talpinayotgan o‘g‘lonlar hayotini yorqin badiiy bo‘yoqlarda ochib beruvchi ma‘naviy manba bo‘ldi.

Film syujeti Qashqadaryo vohasining betakror, so‘lim manzaralari fonida kechadi. Asarda yoritilgan ota va bola o‘rtasidagi munosabatlar jamiyatimizning muqaddas bo‘g‘ini bo‘lmish oila institutini yuksak

yo‘li har bir yosh tomoshabin uchun o‘ziga xos ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Shunisi e‘tiborga molik, kartinning tub mohiyatida halollik va adolat tamoyillari bosh g‘oya sifatida qizil chiziq bo‘lib o‘tgan. Asarning har bir kadrida haqiqiy g‘alabaga faqat pok niyat va mashaqqatli mehnat orqaligina erishish mumkinligi ta‘kidlanadi.

Biz ko‘zlayotgan marralar Olimpiada cho‘qqilariyu jahon arenalari shohsupalari ekan, sportchilarimiz ma‘naviy ozuqa, ruhiy quvvat beruvchi asarlarga doimo ehtiyoj sezadi. Zero, chinakam san‘at insonning ichki salohiyatini uyg‘otish, uni buyuk maqsadlar sari ruhlantirishda eng ta‘sirchan kuch hisoblanadi. “Sehrl chapaqay” loyihasi esa teran tarbiyaviy ahamiyati bilan yosh avlodni vatanparvarlikka, qat‘iyat va sog‘lom turmush tarziga chorlovchi hayotiy dasturlamal bo‘la olishi shubhasiz.

Filmda mardlik, metin iroda va farzandi kelajagi yo‘lida aslo tolmaydigan ota obrazni orqali bugungi jamiyatimizdagi munosib oila boshlig‘i, talabchan va mehribon ustoz timsoli ishonarli g‘avdalanirilgan. Ayni qahramon timsolidagi sabr-toqat, o‘z hayotiy tamoyillariga qat‘iy sadoqat — bugungi murakkab davrda har qaysi soha vakili uchun suv va havodet zarur sifatlar. Ayniqsa, sportdagi achchiq mag‘lubiyatlar, ketma-ket kutilmagan umidsizliklar qarshisida sinmay, aksincha, qayta oyoqqa turish falsafasi asarning dramatik cho‘qqisi sifatida ishlangan. Bu jarayon tomoshabin qalbiga hayotning har qanday og‘ir sinovi o‘tkinchi ekanini, eng muhimi, tanlangan maqsad sari doimo qat‘iy ishonch va yorug‘ umid bilan qadam tashlash lozimligini chuqur singdiradi.

Milliy kinematografiyamizdagi bu kabi loyihalar xalqimizning ezgu orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyatga ega. “Sehrl chapaqay” badiiy filmi esa futbol yoxud umuman, sport



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.

darajada ulug‘laydi. Bosh qahramonning maydondagi shiddatli kurashlari faqatgina raqibni yengishdan iborat emas. Bu, avvalo, hayot qiyinchiliklari, kutilmagan zarballari ruhiy tushkunlikni yengib o‘tish yo‘lidagi matonat silsilasi.

Otasining qo‘llovi, onasining duolaridan ruhiy quvvat olgan havaskor futbolchi yigitning taqdir

maydonlaridagi kurashlar haqidagi ta‘sirchan hikoya, butun bir millat irodasi, g‘alaba sari tinmay intiluvchi yengilmas o‘zbek ruhining chinakam taranumi bo‘ldi deyish mumkin.

**Jonibek ALIJONOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546.  
30570 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

18-may — Xalqaro muzeylar kuni

## “SAHRODAGI LUVR”

## SAYYOHLARNI JALB QILMOQDA

O‘ngirmunchoq – jaranglaydigan taqinchoq

Tasavvur qiling: yengil qadam, zo‘rg‘a eshitiladigan mayin jarang, metallning nozik jilosi. O‘ngirmunchoq faqat yorug‘likda emas, balki tovush chiqarib ham jonlanadi. Bu qoraqalpoq an‘anaviy libosining o‘ziga xos bezagi bo‘lib, kashtali ko‘krak qismining pastiga mahkamlanadi va butun libosga alohida ifoda hamda nafislik bag‘ishlaydi. Uning harakatlanuvchi osmalari — zanjirchalar va qo‘ng‘iroqchalar nozik jaranglab, bezakni go‘yo jonli harakatlanuvchi qismga aylantiradi.

O‘ngirmunchoq gumbazsimon yoki chodirsimon ko‘rinishda bo‘lib, an‘anaviy ayollar bosh kiyimining shakli bilan uyg‘unlik kasb etadi. Uning islimiy naqshli bezaklarida ustaning nozik didi, shakl va hajm uyg‘unligiga intilishi yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘yma naqsh, sim bezak, donali bezak, zarhal bezak, shuningdek, firuza va marjon ulamaları — bularning barchasi murakkab badiiy obrazni ifodalaydi, undagi har bir qism alohida ma‘no kasb etadi.

O‘ngirmunchoq faqat bezak emas. An‘anaga ko‘ra, u turmushga chiqqan ayol timsoli bilan bog‘liq bo‘lib, himoya, farovonlik va hayot davomiyliqi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi. Bu — go‘zallik, jarang va ma‘no uyg‘unlashgan noyob buyum. O‘ngirmunchoqni ko‘rish — an‘ana bardavomligini his qilish demak.

Bunday eksponatlarini dunyoga mashhur Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘istonda davlat san‘at muzeyida tomosha qilish mumkin.

— Isim Orlando, Italiyadanman. 2023-yildan O‘zbekistonda gid bo‘lib ishlayman, — deydi subhatboshimiz. —

2024-yildan buyon Qoraqalpog‘istonga sayyohlik guruhlari bilan kelamiz hamda Nukus, Mo‘ynoq va Orol dengizi hududida



— Men milanlikman, bu yerga tasodifan kelib qoldim, — deydi o‘zini Marko deb tanishtirgan sayyoh. — Bu yer menda chindan ham ajoyib taassurot qoldirdi. Muzey — ajoyib, betakror san‘at asarlari namoyishi etilgan. Ushbu maskanni barpo etgan insonning muhabbati va fidoyiligi tarixi haqiqatan ham hayratlanarli. Bu yerda nafaqat go‘zal suratlarini, balki o‘tgan davrlar hayotini aks ettiruvchi juda qiziqarli tasvirlarni topasiz.



bo‘lamiz. Bundan juda xursandman. Chunki biz O‘zbekistonning haqiqatan ham o‘ziga xos joylariga boryapmiz. Sayohat uchun juda ko‘p qiziqarli joylar bor: Nukusdan tortib, Mo‘ynoqqaqacha. Shuningdek, bu yerda Savitskiy muzeyi joylashgan bo‘lib, u juda go‘zal va noyob. Muzey tarixi ham, undagi suratlar ham o‘ziga xos.

Ochig‘i, O‘zbekistonning sayyohlar juda kam bo‘ladigan joylariga borish yoqimli. Masalan, Samarqand va Buxoro nihoyatda go‘zal shaharlar, lekin ba‘zi mavsumlarda sayyohlar ko‘pligi sababli gavjum bo‘ladi. Shuning uchun bu yerda bo‘lish va kam sonli sayohatchilar orasida o‘zgacha tuyg‘ularni kashf etish juda maroqli.

Albatta, kelgan har bir sayyoh I. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘istonda davlat san‘at muzeyini tomosha qilmay ketmaydi. “Sahrodagi Luvr” deb nom olgan mashhur dargohning noyob, betakror va boy kolleksiyasini tomosha qilish uchun butun dunyodan turistlar Nukusga keladi. Ushbu maskan dunyoda qiymati jihatidan Sankt-Peterburgdagi Davlat Rus muzeyidan keyingi o‘rinda turadigan rus avangardi kolleksiyasiga ega. Unda arxeologik meros obyektlarining yirik kolleksiyasi, shuningdek, Markaziy Osiyo xalq amaliy va zamonaviy san‘ati asarlari ham saqlanadi.

— Majmuamiz fondida 1920-1930-yillarda avangard rassomlar chizgan asarlar to‘plangan. Qoraqalpog‘istonda xalq ustalari tayyorlagan zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtado‘zlik, to‘qimachilik va boshqa asarlar amaliy san‘at bo‘limimizda jamlangan, — deydi ilmiy xodim Aqsungul Aytmuratova. — Xorijlik ko‘p-gina san‘atshunoslar qoraqalpog‘istonda bo‘y tarixiga e‘tibor qaratib, uning betakror namunalarini yuksak baholadi va ularni o‘z mamlakatlarida namoyish etish istagini bildirdi.

— I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san‘at muzeyida saqlanayotgan amaliy san‘at namunalari, qatag‘on davri rassomlarining kartinalari, tarixiy maskanlardan topilgan necha asrlik ashyalar nafaqat mahalliy olimlarning, balki xorijiy san‘atshunoslarning ham e‘tiboriga sazovor bo‘lmoqda, — deydi ilmiy xodim Aqsungul Aytmuratova. — Xorijlik ko‘p-gina san‘atshunoslar qoraqalpog‘istonda bo‘y tarixiga e‘tibor qaratib, uning betakror namunalarini yuksak baholadi va ularni o‘z mamlakatlarida namoyish etish istagini bildirdi.

— Madaniy muassasa bir nechta xorijiy mamlakatda ko‘rgazmalar tashkil etib kelmoqda. Asosiy maqsad xalqaro madaniy aloqalar va millatlar do‘stligini mustahkamlash bilan birga xalqimizning bebaho merosini va avangard davri rassomlarining kartinalarini butun dunyoga tanitish. Mazkur eksponatlar ko‘rgazmasi Fransiya, AQSH, Ispaniya, Italiya, Shveysariya, Avstraliya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya kabi davlatlarda o‘tkazilib, chet ellik san‘atsevarlar tomonidan qizg‘in kutib olingan va har bir ko‘rgazmaga bag‘ishlab katalog kitoblar nashr etilgan.

Muzeylar ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy xazina bo‘lib, yillar davomida boyib, to‘lib boradi. Ular faqat madaniy qadriyatlar namoyishi bo‘lib qolmay, bizni o‘tmish sayohatiga chorlovchi yo‘lchi yulduz hamdir. Shu bois, har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, urf-odatlar, an‘analarda qadimiy yodgorliklarni o‘rganish va saqlashga intilishi tabiiy.

Muzey kolleksiyasida an‘anaviy naqshlari bilan ajralib turadigan eng go‘zal ashyolardan biri — qizil kiyimeshek saqlanadi. Bu bosh kiyim qizil movuttan tikiladi va yangi turmush qurgan kelinchakning asosiy liboslaridan. Uni ayollar to‘y kunidan boshlab kiygan. Shu sababli u muayyan darajada ayolning ijtimoiy maqomini ham ifodalagan.

Bosh kiyim uch qismdan iborat: kiyimeshek oldi — old qismi bo‘lib, to‘liq kashtalanib bezatilgan; pashshayi — ipak matodan tikilgan orqa qismi; kiyimeshek quyruq — ipak popuklar bilan bezatilgan dum qismi. Old qismi to‘liq murakkab kashta bilan qoplangan bo‘lib, unda geometrik, o‘simliksimon va zoomorf (hayvon shaklidagi) naqshlar tasvirlangan.

Ushbu muzey 1966-yili san‘at arbobi, Qoraqalpog‘istonda xalq rassomi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Igor Savitskiy tashabbusi bilan ochilgan. 1984-yilga kelib, unga musavvir nomi berilgan. 2011-yili ushbu muassasa “Turistlar nazariga tushgan muzey” diplomiga sazovor bo‘ldi. Joriy yilda muzey tashkil etilganining 60 yilligi nishonlanmoqda.

Bugun bu yerda 100 mingga yaqin eksponat saqlanayapti. Ulardan 2500 ga yaqini ko‘rgazmaga qo‘yilgan. Xronologik jihatdan eksponatlar bronza davridan boshlab to‘hozgacha bo‘lgan ijod namunalari qamrab oladi. O‘zbek va rus rassomlarining 1920-1930-yillarda yaratilgan avangard yo‘nalishidagi asarlari muassasaning bebaho durdonalari.

Igor Savitskiy Qoraqalpog‘istonda ilk bor 1950-yilda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasiga qo‘shilish uchun kelgan. Shundan so‘ng u O‘zbekistonda butunlay qolib ketdi. Markaziy Osiyoga taalluqli qoraqalpog‘istonda san‘ati va hunarmandchiligi asarlarini, rassomlarning ijod namunalari, shuningdek, o‘sha paytlarda sobiq ittifoq idoralari taqiqilgan rus avangardi asarlarini yig‘a boshladi.

## Qizil kiyimeshek

Muzey kolleksiyasida an‘anaviy naqshlari bilan ajralib turadigan eng go‘zal ashyolardan biri — qizil kiyimeshek saqlanadi. Bu bosh kiyim qizil movuttan tikiladi va yangi turmush qurgan kelinchakning asosiy liboslaridan. Uni ayollar to‘y kunidan boshlab kiygan. Shu sababli u muayyan darajada ayolning ijtimoiy maqomini ham ifodalagan.

Bosh kiyim uch qismdan iborat: kiyimeshek oldi — old qismi bo‘lib, to‘liq kashtalanib bezatilgan; pashshayi — ipak matodan tikilgan orqa qismi; kiyimeshek quyruq — ipak popuklar bilan bezatilgan dum qismi. Old qismi to‘liq murakkab kashta bilan qoplangan bo‘lib, unda geometrik, o‘simliksimon va zoomorf (hayvon shaklidagi) naqshlar tasvirlangan.

Kompozitsiyaning markaziy elementi — rang-barang ipak iplar bilan tikilgan keng gorizontal “o‘rta qora” tasmadir. Naqshlar hosildorlik, farovonlik va himoya timsolini ifodalagan. Qizil rang esa hayot, yoshlik va onalik ramzi bo‘lgan.

An‘anaga ko‘ra, libosning ushbu qismini qiz bolaning o‘zi kashtalab tikishi kerak. Tikuv va kashtalash yumushlari turmushga chiqishdan ancha oldin boshlanib, ba‘zan bir necha yil davom etgan. Har bir chevar o‘ziga xos rang uyg‘unligini tanlab, naqshlar orqali his-tuyg‘ularini, orzu va umidlarini ifoda etgan. Shu bois, har bir kiyimeshek uni tayyorlagan chevarning betakror uslubini aks ettirgan.

Bugun muzey to‘plamidagi qizil kiyimeshek nafaqat milliy libos turi, balki qoraqalpog‘istonda chevarlarining an‘analari, o‘ziga xos ramziy ma‘nolarini va nozik badiiy mahoratini mujassam etgan haqiqiy xalq amaliy san‘ati asari hisoblanadi.

— I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san‘at muzeyida saqlanayotgan amaliy san‘at namunalari, qatag‘on davri rassomlarining kartinalari, tarixiy maskanlardan topilgan necha asrlik ashyalar nafaqat mahalliy olimlarning, balki xorijiy san‘atshunoslarning ham e‘tiboriga sazovor bo‘lmoqda, — deydi ilmiy xodim Aqsungul Aytmuratova. — Xorijlik ko‘p-gina san‘atshunoslar qoraqalpog‘istonda bo‘y tarixiga e‘tibor qaratib, uning betakror namunalarini yuksak baholadi va ularni o‘z mamlakatlarida namoyish etish istagini bildirdi.

— Madaniy muassasa bir nechta xorijiy mamlakatda ko‘rgazmalar tashkil etib kelmoqda. Asosiy maqsad xalqaro madaniy aloqalar va millatlar do‘stligini mustahkamlash bilan birga xalqimizning bebaho merosini va avangard davri rassomlarining kartinalarini butun dunyoga tanitish. Mazkur eksponatlar ko‘rgazmasi Fransiya, AQSH, Ispaniya, Italiya, Shveysariya, Avstraliya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya kabi davlatlarda o‘tkazilib, chet ellik san‘atsevarlar tomonidan qizg‘in kutib olingan va har bir ko‘rgazmaga bag‘ishlab katalog kitoblar nashr etilgan.

Muzeylar ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy xazina bo‘lib, yillar davomida boyib, to‘lib boradi. Ular faqat madaniy qadriyatlar namoyishi bo‘lib qolmay, bizni o‘tmish sayohatiga chorlovchi yo‘lchi yulduz hamdir. Shu bois, har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, urf-odatlar, an‘analarda qadimiy yodgorliklarni o‘rganish va saqlashga intilishi tabiiy.

**Minajatdin**  
**QUTLIMURATOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546.  
30570 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05